O‘ZBEKISTONDA PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINING TARIXIY SHAKLLANISHI (1933–2024): ARXIV HUJJATLARI ASOSIDA TAHLIL

Mo‘minov Abbosbek Soyibjon o‘g‘li,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti yetakchi mutaxassisi
e-mail: a.mominov@avloniy.uz
ORC ID: 0009-0003-8174-7500

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekistonda pedagoglar malakasini oshirish tizimining 1933–2024-yillardagi shakllanishi va rivojlanishi O‘zbekiston Milliy arxivining R-94, R-837 va R-847-fondlaridagi hujjatlar, sovet davri me’yoriy hujjatlari va mustaqillik davri qonunchiligi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-genetik va qiyosiy-tarixiy usullar, reja hamda amaldagi qamrov ko‘rsatkichlarini solishtirish qo‘llanildi, natijalar kasbiy rivojlanishning zamonaviy modellari asosida talqin etildi. Sovet davrida tizim markazdan boshqarilgani, kommunistik mafkura maqsadlariga bo‘ysundirilgani va ma’muriy majburlashga tayangani ko‘rsatib berildi. 1940-yillar hisobotlari qamrov ko‘rsatkichlari ortida moliyaviy ta’minot yetishmasligi, tinglovchilar tayyorgarligining past darajasi va mafkuraviy tazyiq turganini ochib beradi. Mustaqillik yillarida, ayniqsa, keyingi islohotlar natijasida tizim milliy qadriyatlar, pedagog maqomini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tamoyillari asosida qayta qurilmoqda. Xulosada tarixiy tajribadan bugungi islohotlar uchun kelib chiqadigan saboqlar asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *malaka oshirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish instituti, kasbiy rivojlanish, arxiv manbalari, sovet ta’lim siyosati, Abdulla Avloniy nomidagi institut, uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ta’lim tarixi.*

Историческое становление системы повышения квалификации педагогов в узбекистане (1933–2024): анализ на основе архивных документов

Муминов Аббосбек Сойибжон угли,
Ведущий специалист Национального института педагогического мастерства имени Абдуллы Авлони

Аннотация: *В статье на основе документов фондов Р-94, Р-837 и Р-847 Национального архива Узбекистана, нормативных документов советского периода и законодательства периода независимости анализируются становление и развитие системы повышения квалификации педагогов в Узбекистане в 1933–2024 годах. Применены историко-генетический и сравнительно-исторический методы, сопоставление плановых и фактических показателей охвата; результаты интерпретированы на основе современных моделей профессионального развития. Показано, что в советский период система управлялась из центра, была подчинена целям коммунистической идеологии и опиралась на административное принуждение. Отчёты 1940-х годов раскрывают проблемы, скрытые за показателями охвата: недостаточное финансирование, низкий уровень подготовки*

слушателей и идеологическое давление. В годы независимости, особенно в результате последних реформ, система перестраивается на основе национальных ценностей, повышения статуса педагога и принципов непрерывного профессионального развития. В заключении обосновываются уроки исторического опыта для современных реформ.

Ключевые слова: *повышение квалификации, институт усовершенствования учителей, профессиональное развитие, архивные источники, советская образовательная политика, институт имени Абдуллы Авлони, непрерывное профессиональное развитие, история образования.*

The historical formation of the in-service teacher training system in Uzbekistan (1933–2024): an archive-based analysis

Muminov Abbosbek Soyibjon ugli,
Leading Specialist, Abdulla Avloni National Institute of Pedagogical Excellence

Abstract: *The article analyses the formation and development of the in-service teacher training system in Uzbekistan in 1933–2024 on the basis of documents from funds R-94, R-837 and R-847 of the National Archives of Uzbekistan, normative documents of Soviet-period and the legislations of the independence period. Historical-genetic and comparative-historical methods and a comparison of planned and actual enrolment figures have been applied, and the findings have been interpreted through current models of professional development. The study highlights that in the Soviet period the system has been centrally managed, subordinated to the aims of communist ideology and reliant on administrative compulsion. Reports from the 1940s reveal the problems behind the enrolment figures: insufficient funding, the low readyness of participants and ideological pressure. Since independence, and especially as a result of recent reforms, the system has been rebuilt on national values, a higher status for teachers and the principles of continuous professional development. The conclusion substantiates the lessons learned from historical experience for current reforms.*

Keywords: *in-service teacher training, teacher training institute, professional development, archival sources, Soviet education policy, institute named after Abdulla Avloni, continuous professional development, history of education.*

Ta'lim sifatini belgilovchi omillar orasida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi alohida o'rin tutadi. Xalqaro tadqiqotlar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi o'quv dasturi mazmuniga yo'naltirilgan, faol o'qitishga asoslangan, hamkorlikni nazarda tutuvchi va yetarli davomiylikka ega bo'lgandagina o'qitish amaliyoti va o'quvchilar natijalarida sezilarli o'zgarish berishini ko'rsatadi [22; 23].

Mustaqillik yillarida, ayniqsa, keyingi islohotlarda o'qituvchi shaxsi va uning kasbiy mahorati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida o'qituvchilarning ish haqini malaka toifasiga qarab tabaqalashtirish va malaka toifalarini berish tartibini tubdan qayta ko'rib chiqish vazifalari belgilandi [2] (strategiyani tasdiqlagan PF-60-son Farmonning 1-bandi va ilovalari Prezidentning 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan o'z kuchini yo'qotgan). 2024-yil 1-fevraldagi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun pedagogning huquqiy maqomi va ijtimoiy kafolatlarini mustahkamladi [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori bilan esa pedagoglarning besh yilda bir marta ishdan ajralgan holda o'tadigan malaka oshirish kurslari bilan bir qatorda "Kasbiy rivojlanish soati" va "Kasbiy rivojlanish kuni" kabi maktab ichidagi shakllar joriy etildi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda pedagogik mahorat markazlari tashkil qilindi [4].

Bu islohotlarning mohiyatini to‘liq anglash uchun malaka oshirish tizimining tarixiy tajribasini o‘rganish muhim. XX asr boshida jadid ma’rifatparvarlari o‘qituvchini millatni uyg‘otuvchi shaxs sifatida ko‘rgan: Abdulla Avloniy 1917-yilda Munavvarqori Abdurashidxonov bilan birgalikda Toshkentda “O‘qituvchilar jamiyati”ni tashkil etgan edi [6, 9]. Sovet hokimiyati esa o‘qituvchini kommunistik mafkura targ‘ibotchisiga aylantirishga intildi [20, 243, 249-b]. Malaka oshirish tizimi aynan shu sharoitda shakllangan va uzoq yillar markazdan boshqarilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda pedagoglar malakasini oshirish tizimining shakllanishi va rivojlanishini arxiv hujjatlari asosida tiklash, uning sovet davridagi mafkuraviy mohiyati va doimiy muammolarini ochib berish hamda mustaqillik davridagi tub o‘zgarishlar va bugungi islohotlar uchun tarixiy saboqlarni ko‘rsatishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O‘qituvchilar kasbiy rivojlanishining nazariy talqinida bir necha yondashuv mavjud. A.Kennedi kasbiy rivojlanishning to‘qqizta modelini – trening, mukofotga yo‘naltirilgan, kamchilikni bartaraf etuvchi, kaskad, standartlarga asoslangan, murabbiylik, amaliyot hamjamiyati, harakatdagi tadqiqot va transformativ modellarni ajratadi hamda ularni bilim uzatishga asoslangan (transmissiv) shakllardan o‘qituvchining kasbiy mustaqilligini kengaytiruvchi (transformativ) shakllarga tomon boruvchi spektrda joylashtiradi. Muallifning ta’kidlashicha, transmissiv modellar markazlashgan boshqaruv va nazoratni qo‘llab-quvvatlaydi [25]. T.Gaski esa o‘qituvchining e’tiqodlari o‘zgarishi kursning o‘zidan emas, balki yangi amaliyot o‘quvchilar natijalarida ijobiy samara berganidan keyin yuz berishini ko‘rsatadi [24]. L.Desimone samarali kasbiy rivojlanishning beshta asosiy belgisini mazmunga yo‘naltirilganlik, faol o‘qish, uyg‘unlik, davomiylik va jamoaviy ishtirokni ajratadi [23]. L.Darling-Hammond va hammualliflari bunga murabbiylik ko‘magi, samarali amaliyot namunalari hamda fikr-mulohaza va refleksiyani qo‘shadi [22]. Ushbu tipologiyalar tarixiy materialni baholash uchun tahliliy mezon vazifasini o‘taydi.

Sovet tarixshunosligida o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan, asosan yutuqlar sifatida yoritilgan. Z.I.Ravkin 1920-yillardagi qayta tayyorlash kampaniyalarini tasvirlaydi [20, 243–249-b], “SSSRda xalq ta’limi” jamoaviy asari esa 1938-yildan barcha respublika va viloyatlarda o‘qituvchilar malakasini oshirish institutlari faoliyat yuritganini qayd etadi [18, 432–433-b]. Hukumat qarorlari to‘plami tizimning umumittifoq me’yoriy asosini ko‘rsatadi [19]. Bu asarlarda tizimdagi muammolar, mafkuraviy tazyiq va majburlash holatlari yoritilmagan. Shu bois tadqiqotning asosiy manbalari sifatida O‘zbekiston Milliy arxivining uch fondi olindi: R-837 (O‘zSSR Xalq Komissarlari Soveti, keyinchalik Vazirlar Kengashi), R-94 (O‘zSSR Xalq maorifi komissarligi, keyinchalik Maorif ministrligi) va R-847 (o‘qituvchilar malakasini oshirish instituti). Ular qatoriga O‘zSSR Maorif ministrligining 1957-yilgi buyruqlar to‘plami [17], Narkompros RSFSR buyruqlari to‘plami [21], institut tarixiga oid nashr [6] va mustaqillik davri me’yoriy-huquqiy hujjatlari [1; 2; 3; 4; 5] qo‘shildi.

Tadqiqotda tarixiy-genetik usul tizimning institutsional rivojini bosqichma-bosqich tiklash uchun, qiyosiy-tarixiy usul O‘zbekistondagi me’yoriy hujjatlarni RSFSR va umumittifoq qarorlari bilan solishtirish uchun qo‘llanildi. Manbashunoslik tahlili doirasida turli manbalardagi sanalar va raqamlar o‘zaro hamda arxiv hujjatlari bilan solishtirildi. Arxiv hisobotlaridagi reja va amaldagi qamrov ko‘rsatkichlari miqdoriy jihatdan taqqoslandi, hisobotlar

matni esa kontent-tahlil yordamida o‘rganildi. Davrlashtirish mezoni sifatida tizimning institutsional maqomi va me’yoriy asosidagi o‘zgarishlar olindi.

Natijalar

1. Ildizlar: 1920-yillardagi qayta tayyorlash kampaniyalari

Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash dastlab muntazam tizim emas, balki siyosiy kampaniyalar shaklida olib borildi, uning asosiy maqsadi esa o‘qituvchilarni yangi tuzum mafkurasiga moslashtirish edi. Turkiston respublikasida o‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari, pedagogika bilim yurtlari va institutlari tashkil etilgan, 1921-yilda savodsizlikni tugatish maktablari o‘qituvchilari kurslarida 3 mingga yaqin kishi o‘qigan [18, 596–597-b]. Umumittifoq miqyosida 1923-yilning yozi “siyosiy qayta tayyorlash kampaniyasi” sifatida o‘tkazilgan: kurslar siyosiy (40 soat), umumta’lim va qishloq xo‘jaligi sikllaridan iborat bo‘lgan, ularning mafkuraviy rahbarligi partiya tashkilotlariga yuklangan [20, 243-b]. Ayrim guberniyalarda qishloq qayta tayyorlash punkti, tuman bazasi va metodik rahbardan iborat pog‘onali tuzilma shakllangan [20, 245-b], bu Kennedining kaskad modeliga mos keladi. RKP(b) Markaziy Qo‘mitasining 1924-yil 4-martdagi qarori qayta tayyorlash kurslari va to‘garaklarining asosiga yangi dasturlar bilan birga Sovet Konstitutsiyasi va siyosiy savodni qo‘ygan [20, 249-b]. Shunday qilib, keyingi o‘n yilliklarga ko‘chgan ikki xususiyat – kasbiy va mafkuraviy maqsadlarning qorishuvi hamda qisqa muddatli ommaviy kurslarga tayanish shu davrdayoq paydo bo‘lgan.

2. Institutsional asos va qatag‘on davri: 1933–1938-yillar

Malaka oshirish tizimining institutsional asosi 1933-yil oxirida shakllandi. O‘zSSR Xalq Komissarlari Sovetining (XKS) 1933-yil 15-dekabrdagi 908-son “O‘qituvchilar malakasini oshirish tizimi to‘g‘risida”gi qarori Xalq maorifi komissarligi faoliyatidagi kamchiliklar qatorida maorif xodimlari malakasini oshirish instituti ishida “jonli, kundalik va tezkor metodik rahbarlik, rejalilik va hisob-kitob yo‘qligi”-ni ko‘rsatadi [9, 32-b]. Demak, institut 1933-yil oxirida allaqachon faoliyat yuritgan. Qarorga ilova qilingan Nizom o‘qituvchilarni ma’lumot darajasiga ko‘ra olti toifaga ajratgan va malaka oshirishning beshta shaklini – kechki pedagogik ta’lim, kurslar, sirtqi ta’lim, mustaqil ta’lim va maxsus metodik yordamni belgilagan. Maqsad 1940-yilgacha boshlang‘ich maktab o‘qituvchilariga to‘liq o‘rta, yetti yillik maktab o‘qituvchilariga esa oliy pedagogik ma’lumot berish edi. O‘quv rejalari va dasturlarni ishlab chiqish pedagoglar malakasini oshirish instituti zimmasiga yuklangan [9, 34–39-b]. Nizom VKP(b) Markaziy Qo‘mitasining 1931–1932-yillardagi maktab haqidagi qarorlariga asoslangan bo‘lib, respublika tizimi to‘liq markaz ko‘rsatmalari asosida qurilganini ko‘rsatadi.

1934-yil 4-maydagi 357-son qaror esa 908-son qarorni rivojlantirib, malaka oshirishni rag‘batlantirish choralarini belgilagan. Unga ko‘ra, 1934-yil 1-sentabrdan boshlab ishdan ajralmagan holda o‘qishning har bir yili pedagogik stajga ikki yil sifatida hisoblanadigan bo‘ldi, ma’lumoti past va malakasini oshirishni istamagan o‘qituvchilarni ishdan bo‘shatish ko‘zda tutildi, institut tayyorlagan dasturlar va darsliklarni birinchi navbatda nashr etish topshirildi [10, 93–94-b]. Ishdan bo‘shatish haqidagi band malaka oshirish rag‘batlantirish bilan bir qatorda majburlash vositasi sifatida ham qaralganini ko‘rsatadi. Qaror loyihasiga Moliya xalq komissarligi bildirgan xulosa ham e’tiborga molik: loyiha RSFSR XKSning 1934-yil 29-yanvardagi 96-son qaroridan ko‘chirilgani, ammo RSFSRdan farqli ravishda aniq reja bilan ta’minlanmagani sababli “deklarativ”, ya’ni amalda ijro mexanizmiga ega bo‘lmagan hujjat ekanligi qayd etilgan [10, 91–92-b]. Bu holat

respublika tizimi RSFSR namunasi asosida qurilganini tasdiqlaydi. RSFSRda ham bu davrda o‘xshash muammolar mavjud edi: 1936-yil 20-fevraldagi 131-son qarorga ko‘ra, 1935-yilgi reja bajarilmagan, sirtqi o‘qiyotgan o‘qituvchilarning 25 foizi o‘qishni tashlab ketgan [21].

Institutning dastlabki faoliyati haqida 1934-yil yakunlari bo‘yicha tuzilgan ma’lumotnoma muhim raqamlarni beradi. Unda yetti yillik ma’lumotga ega bo‘lmagan o‘qituvchilar uchun tuman kurslarida 8370 kishini o‘qitish rejalashtirilgani, amalda esa 6557 kishi (78 foiz) o‘qigani qayd etilgan. Respublika markaziy kurslarida qozoq, tojik, qirg‘iz, uyg‘ur va yahudiy maktablari o‘qituvchilari, to‘liqsiz o‘rta maktabning tarix, geografiya, tabiatshunoslik, til va adabiyot o‘qituvchilari alohida guruhlarda o‘qigan. Jami reja 9770 kishi, amalda 7450 kishi (76,3 foiz) bo‘lgan [7, 49]. Bu raqamlar o‘sha davrda o‘qituvchilarning katta qismi hatto yetti yillik ma’lumotga ham ega bo‘lmaganini ko‘rsatadi.

1937–1938-yillarga oid hujjatlarda tizim ancha kengaygan holda ko‘rinadi: har bir tumanda kechki pedagogika maktablari (jami 99 ta), 12 ta sirtqi pedagogika bilim yurti, sirtqi o‘qituvchilar instituti va sirtqi pedagogika instituti, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazmda uchta okrug filiali hamda institut tarkibida yettita kafedra faoliyat yuritgan [8, 17–18-b]. Ayni hujjat “Xalq ta’limi kadrlari malakasini oshirish instituti ishining ahvoli va qo‘poruvchilik oqibatlarini tugatish choralari to‘g‘risida” deb nomlangan [8, 17-b]. Mamlakatda ommaviy qatag‘onlar avj olgan bir paytda “qo‘poruvchilik” ayblovining ta’lim muassasalariga ham yoyilgani malaka oshirish tizimi totalitar tuzumning siyosiy kampaniyalaridan chetda qolmaganini ko‘rsatadi. 1938-yil 7-maydagi 794-son qaror bilan sirtqi tinglovchilarni dastur va metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash uchun institut qoshida bosmaxona tashkil etildi [11, 249b-].

3. Urushdan keyingi tiklanish va mafkuraviy tazyiq: 1944–1949-yillar

Urush yillari institut faoliyati haqida ma’lumotlar juda kam. Institutning 1947-yilgi hisobotida “Respublika instituti 1944-yildan beri mavjud. Institutning 1944, 1945 va 1946-yillardagi o‘quv ishiga oid hech qanday hujjat topilmadi” deyilgan, institutning tasdiqlangan nizomi bo‘lmagani va hozirgacha yo‘qligi ham ta’kidlangan [12, 1947-yil hisoboti, 18-b.]. Bu urush yillarida tizim faoliyati izchil bo‘lmaganini va 1944-yildan qayta tiklana boshlaganini ko‘rsatadi. Institutga K.D.Ushinskiy nomi Xalq maorifi komissarligining 1945-yil 18-dekabrdagi 1174-son buyrug‘i bilan berilgan [6, 10]; 1945-yilda pedagog vafotiga (1870) 75 yil to‘lgan edi. 1945–1946-yillar buyruqlarida muassasa “K.D.Ushinskiy nomidagi Respublika o‘qituvchilar malakasini oshirish instituti” deb yuritilgan [13, 1–9-b].

Institutning 1947-yilgi ish rejasi (1946-yil dekabrda tasdiqlangan) tizimning maqsadlari va imkoniyatlari o‘rtasidagi tafovutni yaqqol ko‘rsatadi. Rejada respublika miqyosidagi kurslarda 1389 kishini, shu jumladan 729 rahbar xodim va 660 o‘qituvchini o‘qitish, Toshkent va uning atrofidagi o‘qituvchilar uchun 1232 kishilik doimiy seminarlar tashkil etish ko‘zda tutilgan. Rejada tinglovchilar guruhlarini “nazariy tayyorgarlik darajasi va amaliy ish stajiga qarab tabaqalashtirilgan holda” shakllantirish, o‘qish muddatini tayyorgarlik darajasiga qarab 15 kundan bir oygacha belgilash, Fanlar akademiyasi, O‘rta Osiyo davlat universiteti va Toshkent pedagogika instituti bilan hamkorlikda 2240 soatlik doimiy konsultatsiyalar o‘tkazish rejalashtirilgan [12, 1947-yil ish rejasi, 1–5-b.]. Amalda esa 1947-yilda 13 ta respublika seminarida 826 kishi, Toshkentdagi 14 ta doimiy seminarda 344 kishi qatnashgan, ularda o‘rtacha davomat 277 kishidan oshmagan [12, 1947-yil hisoboti, 1–2, 7-b.].

Hisobotda qamrov past bo‘lishining sabablari ochiq ko‘rsatilgan. Birinchidan, viloyat xalq maorifi bo‘limlari o‘qituvchilarni belgilangan miqdorda yubormagan: masalan, Samarqanddan 137 kishi o‘rniga 55 kishi, Farg‘onadan 120 kishi o‘rniga 52 kishi kelgan. Ikkinchidan, mahalliy bo‘limlarda safar xarajatlari uchun mablag‘ bo‘lmagan va “o‘qituvchilar seminarlarga o‘z hisobidan kelgan”. Uchinchidan, o‘qituvchilar seminarlarga kechikib kelgan: o‘zbek maktablarining adabiyot o‘qituvchilari seminariga chaqirilgan 60 kishidan faqat 20 nafari o‘z vaqtida yetib kelgan [12, 1947-yil hisoboti, 3–5-b.]. Toshkent seminarlarida o‘zbek o‘qituvchilari 78 kishini, ya’ni tinglovchilarning 23 foizini tashkil etgan, holbuki shaharda 800 ga yaqin o‘zbek o‘qituvchisi ishlagan [12, 1947-yil hisoboti, 7-b.]. Bu o‘zbek maktablari o‘qituvchilarining malaka oshirish imkoniyatlari ancha cheklangan bo‘lganini ko‘rsatadi. Institut kengashining 1946-yil 14-dekabrdagi majlisida metodistlar seminarlarga 10-16 kishi kelishini, kuzda o‘qituvchilar paxta terimiga jalb etilgani sababli davomat 25 kishidan 10 kishiga tushib ketganini aytgan, ulardan biri esa “o‘qituvchilarning Institut tadbirlariga kelishini ta’minlash uchun ma’muriy bosim kerak” degan fikrni bildirgan [14, 1–5-b].

Tinglovchilarning tayyorgarlik darajasi ham jiddiy muammo edi. Bir seminarga kelgan 60 nafar til va adabiyot o‘qituvchisi ma’lumoti bo‘yicha 9 xil, 63 nafar matematika o‘qituvchisi esa 14 xil toifaga mansub bo‘lgan. Geometriyadan nazorat ishini topshirgan 42 o‘qituvchidan 36 nafari qoniqarsiz baho olgan, adabiyot seminarida 60 o‘qituvchidan 40 nafari yozma ishni bajarishdan bosh tortgan. Natijada Maorif ministrligi kollegiyasi matematika va adabiyot seminarlarining muddatini ikki oygacha uzaytirgan [12, 1947-yil hisoboti, 5–6-b.]. Toshkent viloyatining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun yozgi kursda 287 tinglovchidan 34 nafari 7-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni bajara olmagan [12, 1947-yil hisoboti, 15-b.].

Institutning moddiy va kadrlar bazasi ham zaif edi. 1947-yil boshida bino sakkiz yil davomida ta’mirlanmagani sababli yarim vayron holatda bo‘lgan, keyin ta’mirlangan. Biroq binoning 52 xonasidan 28 tasi boshqa o‘quv yurtlariga berilgan, qolgan 24 xonani institut kechki pedagogika instituti bilan baham ko‘rgan. Kutubxonada 1947-yil boshida atigi 2000 nusxa kitob bo‘lgan. Metodistlarning yarmidan ko‘pi o‘rindoshlik asosida ishlagan, chunki 630-730 rubllik maosh malakali pedagoglarni qoniqtirmagan [12, 1947-yil hisoboti, 16–18-b.]. 1948-yilgi hisobotga ko‘ra, nomzodlik darajasiga ega metodistlar ham o‘rtacha 720 rubl olgan, bu “yetti yillik maktabning oddiy o‘qituvchisi maoshidan ham kam” edi [12, 1948-yil hisoboti, 24-b.].

Shu bilan birga, 1947–1948-yillarda tizimni tartibga solish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yildi. Maorif ministrligining 1947-yil 15-avgustdagi 782-son buyrug‘i bilan Toshkent o‘qituvchilari uchun malaka oshirish kuni belgilandi: maktab direktorlari seminarga yuborilgan o‘qituvchilarga haftada yarim kun darsdan bo‘sh vaqt ajratishi lozim edi. Ammo buyruq amalda bajarilmagan: shahar xalq maorifi bo‘limi ro‘yxatlarni faqat oktabrda taqdim etgan, ko‘plab maktablar dars jadvalini o‘zgartirmagan [12, 1947-yil hisoboti, 7–8-b.]. 1948-yilda kollegiya respublika va viloyat o‘qituvchilar malakasini oshirish institutlari haqidagi Nizomni hamda o‘qituvchilar malakasini oshirishning yagona davlat tizimi haqidagi Nizomni tasdiqladi. Hisobotda O‘zSSR bu borada “RSFSRdan keyingi ikkinchi respublika” ekani qayd etilgan [12, 1948-yil hisoboti]. 1948-yilda seminarlarda reja bo‘yicha 900 kishi o‘rniga 1056 kishi qatnashgan. Biroq yagona tizim Nizomida ko‘zda tutilgan 750 soatlik ochiq-sirtqi ta’limni mablag‘ yo‘qligi sababli 1949-yilda ham joriy etib bo‘lmasligi, chekka hududlardan

chaqirilgan o‘qituvchilarning safar xarajatlari uchun ajratilgan mablag‘ esa yil o‘rtasida olib qo‘yilgani ta’kidlangan [12, 1948-yil hisoboti, 24–27-b.].

1940-yillar oxirida malaka oshirish mazmunida mafkuraviy komponent kuchaydi. 1947-yilda seminarlarga g‘oyaviy-siyosiy mavzular uchun 2–3 soat ajratilgan bo‘lsa, 1948-yil rejasida har bir seminarga fanidan qat’i nazar 20 soatlik siyosiy tsikl kiritildi [12, 1947-yil hisoboti, 19-b.]. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun 1949-yilgi oylik yozgi kursning 150 soatlik o‘quv rejasida 18 soat siyosiy tsiklga, 60 soat ona tili va uning metodikasiga ajratilgan. Chet tili inspektor-metodistlari kengashining rejasiga esa “Fanda kosmopolitizm haqida” mavzusidagi ma’ruza kiritilgan [15]. Bu holat malaka oshirish mazmuni kasbiy ehtiyojlardan ko‘ra kommunistik mafkura talablariga bo‘ysundirilganini, 1949-yilda avj olgan “kosmopolitizmga qarshi kurash” kampaniyasi esa uning mazmuniga bevosita ta’sir qilganini ko‘rsatadi.

4. Markazlashuv va kengayish: 1950–1991-yillar

1950-yillarda tizim hududiy jihatdan kengaydi. Viloyat malaka oshirish institutlari 1936-yildan (Qoraqalpog‘iston, Namangan) 1982-yilgacha (Navoiy) bosqichma-bosqich ochilgani qayd etiladi [6, 43-b]. 1957-yilda Maorif ministrligining A-88-son buyrug‘i bilan K.D.Ushinskiy nomidagi institut qoshida to‘rt shtat birligidan iborat ko‘chma politexnika laboratoriyasi tashkil etildi va uning tajribasini 1958-yilda viloyat institutlariga yoyish topshirildi [17, 10–12-b]. 1958-yilda 2752 pedagog xodimni o‘qitish rejalashtirilgan, amalda 2730 kishi o‘qigan [6, 11-b].

Umumittifoq hujjatlarida bu davrdagi tizimga tanqidiy baho berilgan. KPSS Markaziy Qo‘mitasi va SSSR Vazirlar Kengashining 1958-yil 12-noyabrdagi tezislarida o‘qituvchilar malakasini oshirish “bir tomonlama, asosan metodik xarakterga ega” ekani va unda “o‘qituvchilar ishi ortiqcha reglamentlashtirilishi” ko‘rsatilgan [19, 52-b]. Bu baho sovet tizimining o‘zi ham malaka oshirishdagi haddan tashqari reglamentatsiyani tan olishga majbur bo‘lganini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda O‘zSSR Vazirlar Kengashining 1964-yil 22-sentabrdagi 570-son qarori bilan Respublika instituti K.D.Ushinskiy nomidagi O‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markaziy institutiga aylantirildi. Qarorga ko‘ra, markaziy institut respublikadagi barcha malaka oshirish institutlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga tashkiliy-metodik rahbarlik qiladi, xalq ta’limi rahbar kadrlari, yuqori sinf va maktab-internat o‘qituvchilarining malakasini oshiradi; I–VIII sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirish viloyat institutlariga topshirildi. Institutda rektorat, ilmiy kengash va asosiy maktab fanlari bo‘yicha kafedralar tashkil etildi, qayta tayyorlash muddati 1–3 oy etib belgilandi [16, 5–7-b]. KPSS MQ va SSSR Vazirlar Kengashining 1972-yil 20-iyundagi qarori esa malaka oshirish institutlarini “malaka oshirishning yetakchi o‘quv-metodik markazlari” sifatida mustahkamlashni va respublika institutlarida pedagogika va psixologiya kafedralarini tashkil etishni talab qilgan [19, 238]. Shunday qilib, O‘zbekistonda markaziy institut qoshida kafedralar tashkil etish 1972-yilgi umumittifoq talabidan ancha oldin amalga oshirilgan.

1970–1980-yillarda tizim miqdoriy jihatdan kengaydi: 1975-yilda 47 912 tinglovchini o‘qitish rejalashtirilgan, amalda 67 160 pedagog kurslarda qatnashgan [6, 12b-]. 1981-yildan boshlab har bir tinglovchi kursga besh yil davomida o‘zi tanlagan mavzu bo‘yicha bajarilgan referat bilan kelishi va kurs yakunida uni himoya qilishi talab qilingan [6, 12–13b-], 1985–1988-yillarda esa institutda kafedralar faoliyati ilmiy asosda qayta tashkil etilgan [6, 14]. Biroq bu davrda ham malaka oshirish

mazmuni KPSS qarorlari va kommunistik tarbiya vazifalariga bo'ysundirilgan edi, KPSS MQ va SSSR Vazirlar Kengashining 1966-yil 10-noyabrdagi qarorida esa o'qituvchilar malakasini oshirishda "jiddiy kamchiliklar" mavjudligi tan olingan [19, 220-b].

5. Mustaqillik davri va Yangi O'zbekiston islohotlari: 1992–2024-yillar

Mustaqillik malaka oshirish tizimini sovet mafkurasidan xalos etib, uni milliy qadriyatlar asosida qayta qurish imkonini berdi. Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-apreldagi 169-son farmoyishi bilan institutga jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy nomi berilib, u Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish markaziy instituti deb qayta nomlandi [6, 5]. Bu o'zgarish tizimning milliy pedagogik merosga qaytishining ramziy ifodasi bo'ldi. 1998-yildan boshlab tinglovchilarning bilimini aniqlash uchun kirish va yakuniy testlar joriy etildi, 1999-yildan nomutaxassis o'qituvchilar uchun 200 soatlik qayta tayyorlash kurslari tashkil qilindi [6, 14, 20]. Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi 25-son qarori bilan qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi takomillashtirilib, davlat namunasidagi sertifikat va diplom shakllari tasdiqlandi [5] (qarorning 1-ilovasi – "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari" Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-son qarori bilan o'z kuchini yo'qotgan). Keyingi yillarda rahbar kadrlarning har uch yilda, pedagoglarning esa har besh yilda bir marta 144 soatlik malaka oshirish kursidan o'tishi amaliyoti shakllandi [6, 20–21-b]. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-avgustdagi 234-son qarori bilan institut xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining bosh muassasasi etib belgilandi [6, 20–21-b] (mazkur qaror Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-dekabrdagi 1026-son qarori bilan o'z kuchini yo'qotgan).

2017–2024-yillarda institutning maqomi va nomi bir necha bor o'zgardi. Prezidentning 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori bilan u ilmiy-tadqiqot instituti sifatida qayta tashkil etildi, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori bilan esa uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi va "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasini yuritish vazifalari belgilandi [6, 5–6-b]. 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmon bilan institut negizida A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tashkil etildi [3]. Nihoyat, 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qaror bilan uning negizida A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tashkil qilindi. Qarorda besh yilda bir marta ishdan ajralgan holda o'tkaziladigan malaka oshirish kurslari, "Kasbiy rivojlanish soati" va "Kasbiy rivojlanish kuni" hamda hududiy pedagogik mahorat markazlari nazarda tutildi [4]. Institutning shtat birliklari 85 tadan 118 taga oshirildi [6, 21]. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 30-sentabrda institutga tashrifi chog'ida malaka oshirishda vazirlik, hududiy markaz, maktab va bog'chani bog'laydigan vertikal tizimni yo'lga qo'yish vazifasi belgilandi [6, 3].

Tizimning institutsional rivoji 1-jadvalda, turli davrlardagi reja va amaldagi qamrov ko'rsatkichlari 2-jadvalda umumlashtirildi.

Tahlil natijalari tizimning to'qson yillik tarixida bir qator barqaror xususiyatlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Birinchidan, sovet davrida malaka oshirish asosan Kennedi tasnifidagi transmissiv modellar – trening, kamchilikni bartaraf etuvchi va kaskad modellari asosida qurilgan va totalitar tuzumning mafkuraviy nazorat vositasi bo'lib xizmat qilgan. 1933-yilgi Nizomdagi o'qituvchilarni ma'lumot darajasiga ko'ra toifalarga ajratish va ularni belgilangan muddatda yuqori darajaga yetkazish g'oyasi kamchilikni bartaraf etuvchi modelning yaqqol namunasi, 1920-yillardagi qishloq punkti va tuman bazasi tizimi esa kaskad

1-jadval.

O‘zbekistonda pedagoglar malakasini oshirish tizimi markaziy muassasasining institutsional rivojlanish bosqichlari

Yil	Muassasa nomi va maqomi	Me’yoriy asos, izoh
1933	Maorif xodimlari (pedagoglar) malakasini oshirish instituti	XKSning 15.12.1933-yildagi 908-son qarori va Nizom; institut qarorda faoliyat yuritayotgan muassasa sifatida tilga olinadi
1934–1938	Xalq ta’limi kadrlari malakasini oshirish instituti (IPKKNO)	XKSning 04.05.1934-yildagi 357-son qarori (rag‘batlantirish choralari); 1938-yilda 3 okrug filiali, 7 kafedra
1944–1945	Respublika o‘qituvchilar malakasini oshirish instituti	1947-yil hisobotiga ko‘ra institut 1944-yildan mavjud, tasdiqlangan Nizomi yo‘q
1945–1964	K.D.Ushinskiy nomidagi Respublika o‘qituvchilar malakasini oshirish instituti	XMKning 18.12.1945-yildagi 1174-son buyrug‘i; 1948-yilda yagona tizim Nizomi tasdiqlangan
1964–1992	K.D.Ushinskiy nomidagi O‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markaziy instituti	Vazirlar Kengashining 22.09.1964-yildagi 570-son qarori; rektorat, ilmiy kengash, kafedralar
1992–2017	A.Avloniy nomidagi Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish markaziy instituti (2001–2006-yillarda nomi uch marta o‘zgargan)	VMning 06.04.1992-yildagi 169-son farmoyishi; VMQ-234 (2014) bilan bosh muassasa
2017–2024	Qayta tayyorlash va malaka oshirish instituti → ilmiy-tadqiqot instituti → milliy-tadqiqot instituti	PQ-3289 (2017), PQ-4884 (2020), PQ-4963 (2021), PF-134 (2022)
2024	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti	PQ-231 (21.06.2024): hududiy pedagogik mahorat markazlari, KRK va KRS

Manba: muallif tomonidan [4; 6; 8; 9; 10; 12; 16] asosida tuzilgan.

Izoh: VMQ-234 (2014) Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-dekabrdagi 1026-son qarori bilan, PQ-3289 (2017) Prezidentning 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori bilan o‘z kuchini yo‘qotgan.

modelining namunasidir. Kennedi transmissiv modellar markazlashgan nazoratni qo‘llab-quvvatlashini ta’kidlagan edi [25]. 1949-yilda har bir seminarga 20 soatlik siyosiy tsikl kiritilishi va 1958-yilgi tezislarda tilga olingan “ortiqcha reglamentlashtirish” bu xulosani tarixiy material bilan tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, qamrov ko‘rsatkichlari va o‘qitish sifati o‘rtasida doimiy tafovut kuzatiladi. 1948-yilda reja 117 foizga bajarilgan bo‘lsa-da, xuddi shu davrdagi nazorat ishlari tinglovchilarning bilim darajasi past ekanini ko‘rsatgan. Desimone va Darling-Hammond ajratgan belgilar nuqtayi nazaridan qaralsa, 15–17 kunlik qisqa seminarlar davomiylik talabiga javob bermagan, tayyorgarligi 9–14 xil bo‘lgan tinglovchilarga yagona dastur bo‘yicha dars o‘tilishi esa mazmunga yo‘naltirilganlik va

2-jadval.

Malaka oshirish tadbirlarida reja va amaldagi qamrov (ayrim yillar)

Yil	Tadbir	Reja	Amalda	Bajarilish, %
1934	Tuman va markaziy kurslar (jami)	9 770	7 450	76,3
1947	Respublika kurslari va seminarlari	1 389	826	59,5
1947	Toshkent shahri doimiy seminarlari	1 232	344	27,9
1948	Respublika va shahar seminarlari	900	1 056	117,3
1958	Institut kurslari	2 752	2 730	99,2
1975	Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari	47 912	67 160	140,2

Manba: muallif tomonidan [6, 11–12; 7, 49; 12] asosida hisoblangan.

uyg'unlik talablariga zid kelgan [22; 23]. Shu nuqtayi nazardan, 1947-yilgi rejadagi tinglovchilarni tayyorgarlik darajasiga ko'ra differensial guruhlash va akademik muassasalar bilan hamkorlikda doimiy konsultatsiyalar tashkil etish g'oyalari o'z davri uchun ilg'or bo'lgan, biroq moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlar yo'qligi sababli to'liq amalga oshmagan.

Uchinchidan, o'qituvchilarning malaka oshirishdagi ishtiroki deyarli barcha davrlarda ichki motivatsiyadan ko'ra ma'muriy talab va moddiy rag'batga bog'liq bo'lgan. 1934-yilda o'qishning har bir yili ikki yillik staj sifatida hisoblangan, 1946-yilda metodistlar "ma'muriy bosim" zarurligi haqida gapirgan, 1947-yilda esa o'qituvchilar seminarlarga o'z hisobidan kelgan. Gaski modeliga ko'ra, o'qituvchining kasbiy e'tiqodlari yangi amaliyot o'z sinfida natija berganidan keyingina o'zgaradi [24]. Majburiy va qisqa muddatli kurslarda esa bunday o'zgarish uchun imkoniyat juda cheklangan edi.

To'rtinchidan, bugungi islohotlarning ayrim g'oyalari tarixiy o'tmishdoshlarga ega. 2024-yilda joriy etilgan "Kasbiy rivojlanish kuni" [4] va 1947-yilda Toshkent o'qituvchilari uchun belgilangan malaka oshirish kuni bir xil maqsadga – o'qituvchiga ish vaqti doirasida o'qish imkonini berishga qaratilgan. 1947-yilgi tajriba maktab dars jadvali va mahalliy boshqaruv organlarining mas'uliyati ta'minlanmasa, bunday me'yor qog'ozda qolishini ko'rsatadi. 1981-yildagi referat talabi ham o'qituvchining mustaqil tadqiqotiga asoslangan zamonaviy yondashuvlarga yaqin tajriba sifatida qayta o'rganishga loyiq.

Bugungi davlat siyosati malaka oshirishga yondashuvni tubdan o'zgartirmoqda. Agar sovet davrida o'qituvchidan mafkuraviy sadoqat va ko'rsatmalarni so'zsiz bajarish talab qilingan bo'lsa, hozirgi islohotlar pedagog maqomini qonun bilan himoyalash [1], ish haqini malaka toifasiga bog'lash [2] va kasbiy rivojlanishni maktab hayotining doimiy qismiga aylantirishga [4] qaratilgan. Kennedi tasnifi nuqtayi nazaridan bu transmissiv modellardan amaliyot hamjamiyati va o'qituvchining kasbiy mustaqilligini kengaytiruvchi transformativ modellarga o'tish yo'nalishidir [25]. Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud: 1950–1991-yillar uchun asosan nashr etilgan manbalardan foydalanildi, 1938–1944-yillarga oid arxiv hujjatlari esa topilmadi.

Xulosa o'rnida quyidagilarni keltiramiz:

1. O'zbekistonda pedagoglar malakasini oshirish tizimining institutsional asosi 1933-yil oxirida O'zSSR XKSning 908-son qarori va unga ilova qilingan Nizom bilan shakllandi, 1934-yildagi 357-son qaror esa malaka

oshirishni rag‘batlantirish va majburlash choralarini belgiladi.

2. Sovet davrida tizim markazdan boshqarilgan, RSFSR namunasi asosida qurilgan va kommunistik mafkura maqsadlariga bo‘ysundirilgan. U to‘rt bosqichni bosib o‘tgan: 1920-yillardagi siyosiy kampaniyalar, 1933–1938-yillardagi institutsional asos va qatag‘on davri, 1944–1949-yillardagi tiklanish va mafkuraviy tazyiqning kuchayishi hamda 1964-yildan boshlangan markazlashuv.

3. 1940-yillar hisobotlari qamrov ko‘rsatkichlari ortida turgan doimiy muammolarni ochib beradi: ma’muriy majburlash, safar va o‘qish xarajatlarining ta’minlanmaganligi, institutning zaif moddiy va kadrlar bazasi, tinglovchilarning tayyorgarlik darajasidagi keskin farqlar va mafkuraviy bosim.

4. Mustaqillik yillarida tizim sovet mafkurasidan xalos bo‘lib, milliy qadriyatlar asosida qayta qurildi, keyingi islohotlar natijasida esa pedagog maqomini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Tarixiy tajriba malaka oshirish samaradorligi qamrov foizi bilan emas, balki o‘qitish amaliyotidagi o‘zgarish bilan o‘lchanishi kerakligini, buning uchun moliyaviy ta’minot, maktab rahbariyatining mas’uliyati va o‘qituvchining ish joyida uzluksiz o‘qishi uchun real sharoit zarurligini ko‘rsatadi.

5. 1938–1944 va 1950–1991-yillarga oid arxiv fondlarini maxsus o‘rganish hamda malaka oshirish tizimi tarixining hujjatli xronikasini tayyorlash kelgusidagi tadqiqotlarning dolzarb vazifalari bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz). – 1-bandi va ilovalari Prezidentning 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan o‘z kuchini yo‘qotgan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 25-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz). – 1-ilovasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-son qarori bilan o‘z kuchini yo‘qotgan.

6. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining 90 yilligiga bag‘ishlangan risola. – Toshkent, 2024. – 104 b.

7. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-94-fond, 5-ro‘yxat, 1748-ish (Xalq ta’limi kadrlari malakasini oshirish institutining 1934-yil faoliyati haqidagi ma’lumotnomasi).

8. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-94-fond, 5-ro‘yxat, 3158-ish (Xalq ta’limi kadrlari malakasini oshirish institutlarining ahvoli to‘g‘risidagi materiallar, 1938).

9. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-837-fond, 10-ro‘yxat, 869-ish (O‘zSSR XKSning 1933-yil 15-dekabrdagi 908-son qarori va “O‘zSSR o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimi to‘g‘risida”gi Nizom).

10. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-837-fond, 12-ro‘yxat, 106-ish (O‘zSSR XKSning 1934-yil 4-maydagi 357-son qarori va unga oid materiallar).

11. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-837-fond, 32-ro‘yxat, 772-ish (O‘zSSR XKSning 1938-yil 7-maydagi 794-son qarori).

12. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-847-fond, 2-ro‘yxat (Respublika o‘qituvchilar malakasini oshirish institutining 1947-yil ish rejasi, 1947 va 1948-yillar faoliyati haqidagi hisobotlari).

13. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-847-fond, 2-ro‘yxat, 1-ish (Respublika o‘qituvchilar malakasini oshirish institutining 1945–1946-yillardagi buyruqlari).

14. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-847-fond, 2-ro‘yxat, 3-ish (Institut kengashining 1946-yil 20-noyabr – 14-dekabrdagi majlislari bayonnomalari).

15. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-847-fond, 2-ro‘yxat, 17-ish (Pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarining 1949-yilgi o‘quv-tematik rejalari).

16. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-847-fond, 2-ro‘yxat, 114-ish (Institutning 1964-yilgi shtat jadvali; O‘zSSR Vazirlar Kengashining 1964-yil 22-sentabrdagi 570-son qarori).

17. O‘zSSR Maorif ministrligining buyruq va instruktiv-metodik ko‘rsatmalar to‘plami. № 5. – Toshkent, 1957.

18. Народное образование в СССР / под ред. И. А. Каирова и др. – М.: Изд-во АПН РСФСР, 1957.

19. Народное образование в СССР. Общеобразовательная школа: сборник документов 1917–1973 гг. / сост. А. А. Абакумов и др. – М.: Педагогика, 1974.

20. Равкин З. И. Советская школа в период восстановления народного хозяйства 1921–1925 гг. – М.: Учпедгиз, 1959.

21. Сборник приказов и распоряжений по Наркомпросу РСФСР. – М., 1936.

22. Darling-Hammond L., Hyler M. E., Gardner M. Effective Teacher Professional Development. – Palo Alto, CA: Learning Policy Institute, 2017.

23. Desimone L. M. Improving impact studies of teachers' professional development: Toward better conceptualizations and measures // Educational Researcher. – 2009. – Vol. 38, No. 3. – P. 181–199.

24. Guskey T. R. Professional development and teacher change // Teachers and Teaching: Theory and Practice. – 2002. – Vol. 8, No. 3. – P. 381–391.

25. Kennedy A. Models of continuing professional development: a framework for analysis // Journal of In-service Education. – 2005. – Vol. 31, No. 2. – P. 235–250.